Astronomiya instituti Ulug‘bek madrasasiga “Quyosh soat”i hadya qildi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti Samarqand shahridagi Ulug‘bek madrasasiga “Quyosh soat”i hadya qildi. Bunday soatlar astronomlar tomonidan Ulug‘bek davrida va undan ming yillar oldin ishlatilgan. Endi bu "O‘rta asr gadjeti" sayyohlarni hayratga soladi.

Ular haqiqiy Quyosh vaqtini aniqlashni, tuzatishlar kiritishni, so‘ngra smartfonlaridagi vaqt bilan taqqoslashni mashq qilish imkoniga ega bo‘lishdi. Bu amaliy astronomiyada yaxshi mashg‘ulot bo‘ladi.